



**CHO'LPONNING "QURBONI JAHOLAT" HIKOYASIDA
ILMSIZLIKNING ACHCHIQ OQIBATLARI**

Abduvahobova Mashhura Iqboljon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish

**O'zbek tili yo'nalishi 3-kurs
talabasi**

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Cho'lponning "Qurboni jaholat" hikoyasi asosida ilmsizlik va jaholat muammosi tahlil qilinadi. Asarda jaholat tufayli yuzaga keladigan insoniy fojearlar, noto'g'ri qarorlar va jamiytdagi salbiy oqibatlar yoritilgan. Muallif hikoya orqali ilm va ma'rifatning ahamiyatini ochib berib, o'quvchini ongli hayot kechirishga chorlaydi. Maqolada asarning g'oyaviy mazmuni hamda ijtimoiy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar.

Qurbon, jaholat, ilmsizlik, Cho'lpon, Eshmurod, gazeta, fojea, ilm, jamiyat.

Kirish.

O'zbek jadid adabiyoti namoyandalaridan biri bo'lgan Cho'lpon o'z ijodida jamiyatni orqaga tortayotgan muammolarni, ayniqsa, jaholat va ilmsizlik illatini keskin tanqid qiladi. XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti, undagi ijtimoiy muhit va eski qarashlar yozuvchi asarlarida o'zining haqqoniy ifodasini topgan. Adibning "Qurboni jaholat" hikoyasi ana shu muammolarni ochib beruvchi muhim asarlardan biridir. Unda ilmga intilgan, ammo jaholat



hukmron muhitda yashagan yosh yigit — Eshmurodning fojiali taqdiri orqali ilmsizlikning og'ir oqibatlari tasvirlanadi. Asar orqali muallif jamiyatdagi noto'g'ri qarashlar, bilimsizlik va beparvolik inson hayotini qanday izdan chiqarishini ko'rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi — ushbu hikoya asosida ilmsizlikning achchiq oqibatlarini tahlil qilish hamda uning inson va jamiyat hayotiga ta'sirini yoritishdan iborat.

“Qurboni jaholat”da Eshmurod degan yigitning fojiali taqdiri hikoya qilinadi. Eshmurod — o'qimishli yigit, lekin atrof zimiston. Hamma yoqda jaholat. Hatto o'z otasi uni gazeta o'qigani uchun masxara qiladi. Maktab, ilm-fan, ibrat olish degan gaplarga millatning toqati yo'q — Eshmurodga mana shu tashvishlar tinchlik bermaydi. Uning ustiga bir voqea yuz beradiki, Eshmurodning hayoti ostin-ustun bo'lib ketadi. Eshmurodlarinikiga uning yoshlikdagi tanishlaridan Mo'minjon kelgan edi. Ko'zini shamg'alat qilib, otasining soatini o'marib ketibdi. Otasiga esa yaqin do'sti Nazarali so'fi hadya qilgan edi. Mo'minjon ketishi bilan izma-iz ular kirib keladilar. Gap aylanib soatga kelib taqaladi-yu, uning yo'qolgani ma'lum bo'lib qoladi. Izza bo'lgan ota o'g'liga dashnom berish bilan kifoyalanmaydi, kaltaklaydi. Eshmurod nomus kuchidan yotib qoladi. Bir oycha yotib, bir oz tuzalgach, qo'shnisi mingboshining bog'chasiga chiqib, gazeta varaqlab o'tirganda yana shunday voqea yuz beradi. Mingboshi uni gazeta o'qitish uchun mehmonxonasiga taklif qiladi. O'yinqaroq yoshlardan biri kelib, bu gal mingboshining qoziqqa osib qo'yilgan tilla soatini o'g'irlyaydi va uning tuhmatı Eshmurodga tushadi. Hech bir gap-so'z yo'q, mirshablar bostirib kelib, uni qamamoqchi bo'ladilar. Bularga chiday olmagan Eshmurod o'zini otib, nobud qiladi. Bir-ikki kundan keyin taftishlar chog'ida o'g'ri aniqlanadi, lekin vaqt kech edi. Shu tariqa u jaholat qurboni bo'ladi.1

Eshmurod obraziga yuzlanadigan bo'lsak, u — ilmga intilgan, yangicha fikrlaydigan, o'z zamonasidan oldinda bo'lgan yosh yigit sifatida



tasvirlanadi. Eshmurod gazeta o'qib, atrofdagi voqealardan xabardor bo'lishga harakat qiladi, bu esa uning ongli va ziyrak inson ekanini ko'rsatadi. Ilmga intilgani uchun uni masxara qilishadi, shu sababli u nafaqat jismoniy, balki ruhiy bosim ostida yashaydi. Bu holat uning ichki kechinmalarida, iztiroblarida yaqqol namoyon bo'ladi. Eshmurod obrazi orqali yozuvchi jamiyatdagi adolatsizlik va jaholatning inson taqdiriga

1. B. Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.- Toshkent. Manaviyat, 2004. 276-277 B

qanday ta'sir qilishini ochib beradi. Qahramon bir necha bor nohaq ayblanadi, tuhmatga uchraydi. Eng achinarlisi, hech kim uning haqiqatini eshitishga urinmaydi. Natijada u o'zini yolg'iz va himoyasiz his qiladi.

Fojeaning eng yuqori nuqtasi — Eshmurodning o'z joniga qasd qilishi bilan yakunlanadi. Bu holat uning naqadar chuqur ruhiy iztirobda bo'lganini ko'rsatadi. Aslida esa u aybsiz edi. Shu jihatdan Eshmurod obrazi jaholat qurboni sifatida gavdalanadi.

Demak, Eshmurod — oddiy qahramon emas, balki ilm va jaholat o'rtasidagi kurashning ramziy timsolidir. Uning fojeali taqdiri orqali Cho'lpon jamiyatni o'ylashga, ilm va adolatni qadrlashga chorlaydi.

Hikoyada jaholat muammosining badiiy talqini

Qurboni jaholat hikoyasida jaholat muammosi markaziy o'rin egallaydi. Asarda jaholat turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Eng avvalo, bu holat insonlarning ilm-fanga bo'lgan munosabatida ko'zga tashlanadi. Odamlar bilim olishni qadrlamaydi, aksincha, uni keraksiz deb biladi. Jaholat, ayniqsa, Eshmurodning otasi obrazi orqali yorqin ifodalangan. O'g'li ilm olishga intilganda unga qarshilik ko'rsatishi, hattoki uning ustidan kulishi bu uning ilmsizligi oqibatida albatta. Bu orqali muallif eski qarashlar va noto'g'ri tushunchalar inson hayotiga qanday zarar keltirishini ko'rsatadi. Otaning bu



xatti-harakati nafaqat o'g'lining ruhiyatiga, balki uning taqdiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, hikoyada jamiyatning ham jaholatga botgani ko'rinadi. Odamlar voqeani chuqur o'rganmasdan, tezda xulosa chiqaradi va begunoh insonni ayblaydi. Mirshablarning ham Eshmurodga nisbatan shoshma-shosharlik bilan hukm chiqarishi adolatsizlikning yaqqol namunasidir. Hech kim haqiqatni izlashga harakat qilmaydi.

Demak, asarda jaholat faqat alohida shaxsga xos illat emas, balki butun jamiyatni qamrab olgan muammo sifatida tasvirlangan. Aynan shu jaholat tufayli Eshmurod kabi begunoh insonlar qurbon bo'ladi.

Xulosa.

Cho'lponning "Qurboni jaholat" hikoyasi orqali jamiyatdagi jaholat va ilmsizlikning og'ir oqibatlari chuqur va ta'sirchan tarzda yoritilgan. Asarda Eshmurod obrazi misolida ilmga intilgan insonning jaholat hukmron muhitda qanday fojeaga duch kelishi ko'rsatib beriladi.

Yozuvchi bu hikoya orqali o'quvchini ilm-fan va ma'rifatni qadrlashga, har qanday vaziyatda adolatli va oqilona fikr yuritishga chorlaydi. Chunki jaholat ustun bo'lgan jamiyatda na inson qadri, na haqiqat, na adolat saqlanib qoladi. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, faqat ilm, ong va tafakkur orqali inson o'zini ham, jamiyatni ham fojealardan asrab qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Axmedov. Milliy Uyg'onish davri adabiyot – Toshkent:Ma'naviyat, 2004.
2. Quronov D.. Cho'lpon nasri poetikasi – T.:Sharq, 2019.
3. Cho'lpon. "Qurboni jaholat". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2016.